

Rakhmatjonov Shokhjahon Dilshodbek o'g'li

Shohjahonxolmatov0146@mail.ru

FarDU, Sirtqi bo'lim, ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Abdurxmonova Odinaxon

FarDU, Sirtqi bo'lim, ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

XULQ- ATVORNING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSI

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson yetuk psixik rivojlanishining tarkibiy qismi bo'lmish xulq-atvorining psixofiziologiyasi negizidagi reflekslarning paydo bo'lishida evolyutsion rivojlanish bosqichlari ko'rib chiqilib bunda, o'simliklarning aks ettirishining biologik shakli -tropizmlari, hayvonlarda aks ettirishning yangi turi – sezuvchanlik yuzaga kelganligi bois ular nerv tizimi va miyasi taraqqiyotida unlardagi reflekslarni rivojlavishiga olib kelganligi va odamda psixikaning rivojlanishi eng yuqori bo'lib, ong darajasiga ega bo'lib yetganligi bosqichlariga to'htaladi.

Kalit so'zlar: ta'sirlanuvchanlik, sezuvchanlik, seskanuvchanlik, tropizm, instinklar, ko'nikma, intellektuallik, abstrakt tafakkur, amaliy tafakkur, birinchi signallar sistemasi, ikkinchi signallar sistemasi, ong, nutq, assotsiatsiyalar, assotsiatsiyalar zanjiri.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы эволюционного развития возникновения рефлексов, лежащие в основе психофизиологии поведения человека, которые являются составной частью зрелого психического развития человека. Рассматривается последовательность от биологической формы отражения растений - тропизмов, дальнейшего типа отражения у животных развитых до рефлексов, что означает развитие у них нервной системы и головного мозга, как основу дальнейшего развития психики и сознания человека.

Ключевые слова: чувствительность, тропизмы, инстинкты, умения и навыки, интеллектуальность, абстрактное мышление, практическое мышление, первая сигнальная система, вторая сигнальная система, сознание, речь, ассоциации, ассоциативная цепочка.

Annotation: This article discusses the stages of evolutionary development of the emergence of reflexes that underlie the psychophysiology of human behavior, which are an integral part of the mature mental development of a person. The sequence from the biological form of reflection in plants - tropisms, to the further type of reflection in animals developed to reflexes, which means the development of their nervous system and brain, is considered. Further development of the human psyche and consciousness.

Key words: sensitivity, tropisms, instincts, skills, intelligence, abstract thinking, practical thinking, first signaling system, second signaling system, consciousness, speech, associations, associative chain.

Jamiki materiya jonsiz anorganik materiyadan tortib, to organik materiyaning yuksak hamda murakkab shakli inson miyasigacha moddiy olamning umumiy xususiyatiga ya'ni turli ta'sirlarga javob qaytarish qobiliyatiga egadir. Jonsiz tabiatda harakat jism yoki moddalarning o'zaro mexanik fizik va kimyoviy munosabatlari tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Voqelikdagi ta'sirni aks etish qobiliyati-materiyaning umumiy xususiyatidir. Lekin olamda tirik va o'lik tabiatni aks etishi turlichadir. Tirik materiyaning tashqaridan ta'sir etayotgan moddalar almashinuviga javob berishi **ta'sirlanuvchanlik** deb ataladi. Oddiy ta'sirlanuvchanlik barcha o'simliklarga xos.

A.N.Leontyevning faraziga asosan sezuvchanlik| genetik shunday ta'sirlanuvchanlik- ki tashqi muhit ta'siriga organizmni yo'naltiradi va buning natijasida organizm tashqi muhitida signal vazifasini bajaradi. Demak sezuvchanlik shunday ta'sirlanuvchanlik- ki uning natijasida hayot uchun

zarur ta'sirlar signallashadi. Sezuvcchanlikning namoyon bo'lishi psixikaning paydo bo'lishiga obyektiv biologik belgi sifatida xizmat qiladi.

Hayvonlar evolyutsiyasi jarayonidagi psixikaning sifat o'zgarishlarini A.N.Leontyev o'zi ifodalagan psixik rivojlanish bosqichlariga asos qilib oldi. Elementar sodda sensor psixika bosqichi(A.N.Leontyev ta'rificha, tashqi muhit obyektning u yoki bu sifatiga qarab javob beraveradi) Bu oddiy sezish bosqichidir.

K.E.Fabri fikricha, oddiy sensor psixikaning ikki-past va yuqori darajasiga ajratiladi. Ko'pgina bir hujayralilar hamda ayrim ko'p hujayralilarda psixik rivojlanishning past darajasi kuzatiladi. Bunda psixik faollikning oddiy turlari namoyon bo'ladi. Elementar psixikaning yuqori bosqichida ko'p hujayrali umurtqasizlarda namoyon bo'ladi. Bu hayvonot evolyutsiyasining zarur davridir. Hayvonlar uchun ushbu bosqichda predmet olami mavjud bo'lmaydi ular obyektни idrok eta olmaydilar.Ular psixik aks ettirishi oddiy sezgi tarzida bo'ladi.Ushbu xolatlar fanda Leontyev va Fermi taxmini deb nom olgan.

Seskanuvchanlik va tropizm Hamma tirik organizmlar o'simliklardan tortib hayvonlargacha aks ettirishning biologik shakli seskanuvchanlik xususiyatiga egadir. Seskanuvchanlik - tirik organizmning biologik ahamiyatiga ega bo'lgan ta'sirlariga javob qaytarish qobiliyatidir.Biotik ya'ni biologik ahamiyatga ega bo'lgan omillariga maxsus harakatlar bilan reaksiya qilish usullariga tropizm yoki taksislar deyiladi.

Tropizmlarning quydagi turlari mavjud:

Fototropizm (bu tirik organizmning yorug'lik ta'sirida harakatga kelishidir) Masalan yoz kuni tungi chiroq yorug'ligiga mayda chivinlarning uchib kelishi)

Termotropizm (tirik organizmning issiqlik ta'siri ostida harakat qilishga moyilligidir) Masalan bahor kelishi bilan hashoratlarning jonlanib harakatga kelishi).

Xemotropizm (tirik organizmning fizik-ximiyaviy muhitni tanlab olishga bo'lgan moyilligidir) Masalan, achigan qatiq mevalarga mayda chivinlarning yig'ilishi)

Topotropizm (tirik organizmlarning mexanik qo'zg'atuvchilar ta'siri ostida harakat qilishiga moyiligidir) Mimoza o'simligiga tegilsa u darhol yaprog'ini yopib oladi)

Gemotropizm (tirik organizmning quyosh nuri ta'siri ostida harakat qilishga moyilligidir) Masalan, kungaboqar o'simligining quyosh nuri tomon harakatlanishi)

Barotropizm (tirik organizmning havo bosimi ostida harakat qilishga moyilligidir)Masalan,havo bulut bo'lganida,havoda uchib yurgan hashoratlar yerga pastga qarab uchadilar)

7 . Gidrotropizm (tirik organizmning namlik suv ta'siri ostida harakat qilishiga moyilligidir)

O'z navbvtida aks ettirishning xam bir necha turlari mavjud.

O'simliklarda-aks ettirishning biologik shakli faqatgina tropizmlardan iborat bo'lib, bu harakatlar o'simliklarga o'z-o'zini boshqarishiga yordam beradi Masalan, nomozshomgul kechki payt ochilib,kunduzi yorug'likdan yopiladi

Hayvonlarda -aks ettirishning yangi turi sezuvcchanlik yuzaga keladi.Sezuvcchanlik qobiliyati tufayli, hayvonlar, o'simliklarga nisbatan ancha ko'p ta'sirotlarni aks ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi.Hayvon nerv tizimi va miyasi qanchalik yuksak darajada taraqqiy etgan bo'lsa,uning psixikasi ham shunchalik yuqori bosqichga ko'tarilgan bo'ladi.

Odamda -psixikaning rivojlanishi eng yuqori bo‘lib ong darajasiga ega.

Endi o‘simliklarda aksetirish tropizm darajasida qolgan bo‘lsa, xayvonot olamida bu protsess evolyutsion o‘zgarishga duch keladi va aks ettirishning shakli murakkablashib instinktlarga aylanadi.

Hayvonlarning instinktlari

Instinktlar hayvoning tabiiy ehtiyojlarini qondirish uchun qiladigan murakkab tug‘ma harakatlaridir. Qushlar juda ustalik bilan in yasar ekanlar material tanlash va inni pishiq qilib qurish yo‘lida xilma-xil harakatlarni bajaradilar. Masalan qaldirg‘ochlarning in qurishi, asalarilar ini, baliklar nasl koldirishi va xkz.

Instinktiv harakatlar muayyan shart-sharoitlarga qat‘iy bog‘liq bo‘ladi. Instinktning amal qilish mexanizmi shundan iborat-ki, tashqi shart-sharoitlar reflektor munosabatnibildirishga undaydi.

Instinktiv harakatlar standart shart-sharoitlar o‘zgarishi bilanoq o‘zining maqsadga muvofiqligini yo‘qotadi. Shunday qilib, xatti-harakatlarning instinktiv shakllari faqat doimiy sharoitlardagina maqsadga muvofiqdir.

Hayvonlarning instinktlari turli xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Ovqatlanish instinkti- hayvonlarning o‘zi va bolasi uchun ovqat qidirib topish, ovqat g‘amlash harakatlaridir.

Himoyalani instinkti-hayvon o‘z hayotini va omonligini saqlash harakatlarida ifodalanib, u ikki ko‘rinishda sodir bo‘ladi Birinchisi dushmanga hujum qilish.

Ikkinchisi o‘zini himoya qilishdir. Har bir hayvon dushmandan himoya qilish uchun biror organidan shoxlari tuyoqlari tish- tirnoqlari, tikanlari kabi yoki zaharli-hidli suyuqlikdan foydalanadi.

Nasl qoldirish instinkti- bu ota-onalik instinkti sifatida ko‘rinib, nasl avlod uchun g‘amxo‘rlik qilish, uni ma‘lum vaqtgacha ovqat bilanta‘min etish, xavf-xatardan saqlasho‘z bolalarini parvarish qilish tug‘ma mahoratiga ega bo‘lib, o‘z naslining kelajagi haqida g‘amxo‘rlik qiladi)

To‘da bo‘lib yashash instinkti–bu instinkt hayvonlarning turli usullar bilan o‘zaro aloqa qilishida xilma-xil shaklda birgalashib, to‘dalashib, poda bo‘lib, gala bo‘lib yashashlarida zohir bo‘ladi.

Bu Instinktiv harakatlar tug‘ma va nasldan-naslga o‘tadigan ongsiz harakatlardir. Ular hayvonlarning hayot uchun kurashish va muhitga eng muvaffaqiyatli uyg‘unlashish jarayonida hosil qilingan holda irsiy yo‘l bilan mustahkamlanib qolgan ongsiz harakatlardir. Bular aql bilan o‘ylab bajariladigan oqilona harakatlar emas.

Intellektual xatti-harakatlar hayvonning ancha yuksak shakldagi psixik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, u tug‘ma instinktlar va hayotda hosil qilingan ko‘nikmalar hayvonning yashash sharoiti talablariga javob bera olmagan taqdirda yuzaga keladi.

Yuksak taraqqiy qilgan hayvonlar ular uchun ma‘lum muammolar bilan bir qatorda yangi bo‘lgan narsani ham hal qila oladilar, masalan maymun qafas ichiga kirishi bilan mevani olmoqchi bo‘ladi, ammo bo‘yi yetmaydi. Maymunlarning intellektual harakatlari har qanday harakatlarni sinab ko‘rish jarayonida aniq amaliy tafakkur tarzida sodir bo‘ladi. Taqlidchanlik, maymunlar hulq-atvorining xarakterli xususiyatidir. Masalan, maymun supurgi bilan polni supuradi va lattani ho‘llab siqadi polni artadi yuvadi Odatda, maymunlar harakatning natijasiga emas, balki harakatning o‘ziga taqlid qiladilar. Va albatta, yuksak taraqqiy etgan katta maymunlarning instinktiv xatti- harakati, bir hujayrali hayvonlar instinktidan jiddiy farq qiladi.

Psixikaning muhit va a'zolar tuzilishiga bog'liqligi-Barcha tirik organizmlar mavjud sharoitga moslashadi.O'z-o'zini boshqarish oddiy ta'sirlanuvchanlikdan boshlanib,o'zining yuksak taraqqiyotiga erishadi. Aks ettirish usuli qanchalik yuksak bo'lsa, mazkur turdagi hayvon muhitning bevosita ta'siridan shunchalik ozod bo'ladi. Muhitdagi haroratning o'zgarishi bilan organizmdagi kimyoviy reaksiyalar tezligi ham o'zgaradi, harorat ko'tarilsa, reaksiya tezligi oshadi, harorat pasaysa reaksiya tezligi kamayadi.

Bordi-yu harorat juda oshib yoki juda tushib ketsa bir hujayrali organizm halok bo'ladi. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlar esa sharoit o'zgarishi bilan bir joydan ikkinchi joyga ko'chishga majbur bo'ladi, asosiysi ular buni qila oladilar. Ammo hayvonlar taraqqiyotining har qanday darajasida ham muhitga bo'lgan bog'liqlikdan batamom qutula olmaydilar. Muhit- tirik organizmning yashash sharoiti va tirik organizmlar hayotini belgilovchi omildir.

Taraqqiyotning navbatdagi pog'onasida asab tizimidabir qator sifat o'zgarishlar yuzaga keladi.Tuguncha shaklidagi nerv hujayralar asab tizimining ko'proq miqdordagi qo'zg'atuvchilarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatini beradi,natijada inson psixikasining rivojlanishiga imkoniyatva omillar yuzaga keladi.

Inson psixikasi bilan eng yuksak taraqqiy etgan hayvon psixikasi o'rtasida katta farq mavjud.Hayvonlar"tili"bilan inson tilini hech bir jihatdan taqqoslab bo'lmaydi.

Hayvon o'z to'ldasidagi boshqa o'ziga o'xshash hayvonlarga ayni chog'dagi bevosita vaziyat bilan cheklangan hodisalar xaqida faqatgina signal berolsa inson til yordami bilan boshqa odamlarga o'tgan hozirgi va kelgusi zamondagi narsalar haqida axborot berishi va ularga ijtimoiy tajribani o'tkazishi mumkin.

Hayvon va odam tafakkurining bir-biridan farq qilishi ular tili o'rtasidagi farqqa bog'liqdir. Inson abstrakt tafakkurga hayvon esa amaliy tafakkurga ega.

Odam zaruriyatga mos ravishda ongli suratda ish ko'rish qobiliyatiga ega.Qurol yasash va uni asrash qobiliyatiga egalik odam psixikasi bilan hayvon psixikasining bir-biridan ajratuvchi ikkinchi muhim farq hisoblanadi. Odam psixik faoliyatining hayvonlar psixikasidagi

uchinchi farqi shuki,inson o'zidan keyingi avlodlarga ijtimoiy tajriba qoldiradi. Odam bilan hayvon o'rtasidagi

to'rtinchi g'oyat muhim farq hissiyot o'rtasidagi farqdir. Inson ongi mehnatda rivojlanadi.

Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar ta'sirida rus olimi I.M. Sechenovning (1829-1905) reflektor nazariyasi ro'yobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari, bosh miya reflekslarining o'ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatiga ega bo'ldi.

I.M.Sechenovning «Bosh miya reflekslari» nomli asarida qat'iy ravishda fikr bildirishicha, «ong va ongsiz hayotning barcha harakatlari ro'y berish usuliga ko'ra reflekslardan iboratdir». Hozirgi zamon fanining ko'rsatishicha, orqa miya va miya naychasi reflektor faoliyatining tug'ma (shartsiz reflekslar) hisoblangan shakllarni amalga oshiradi, katta yarim sharlarning qobig'i esa hayotda orttirilgan, psixika yordami bilan boshqariladigan xulq-atvor shakllarining organi sanalanadi.

Miya katta yarim sharlari faoliyatining umumiy qonunlari esa I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan. Hozirgi zamon fiziologiyasi ma'lumotiga qaraganda, miyada hosil bo'ladigan to'lqinlar turli chastotadagi elektromagnit tebranishlariga o'xshab ketadi.

Odamda oliy nerv faoliyatining bunday o'ziga xosligi unda ikkita ya'ni birinchi va ikkinchi signallar tizimi mavjudligidan kelib chiqadi. Ushbu tizimni ilk bor 1932 yilda ilmiy asoslab bergan olim aynan I.P.Pavlov hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rakhmatjonov Shokhjahan Dilshodbek o'g'li //The Role Of Physical Culture In Providing The Psychological Health Of The Athlete// Innovative Developments And Research In Education. International Scientific Online Conference. Canada. Part 2, 23.01.2022. 1-3
2. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //Sportchi Psixologik Salomatligiga Ta'Sir Etuvchi Omillar// Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (Giirj). Vol. 10, Issue 11, Nov.(2022). 117-121 Pages.
3. Qurbonova Saida Miralimjanovna, Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //Mamlakatimiz Psixologlari Ishlarida Shaxslararo Munosabatda Muomala Muammosining Talqini// Journal Of Pedagogical And Psychological Studies. Vol. 1. № 5, (2023). 99-103 Pages.
4. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //Speech Issues In Psycholinguistics// Iqro Jurnalı № 2. 04.2023. 503-511 Betlar.
5. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li, Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li //Xorij Psixologlarining Ishlarida Shaxsning Tadqiq Etilishi// Innovative Developments And Research In Education. Vol. 1. № 12, 2022. 39-47 Pages.
6. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //Talabalarda Tolerantlikni Rivojlantirish – Ijtimoiy Psixologik Muammo Sifatida// International Journal Of Economy And Innovation. Volume: 30. 2022. 66-70 Pages.
7. Rakhmatjonov Shokhjahan Dilshodbek o'g'li //Psychological Aspects Of The Sportsman Personality During Competitions// Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnalı. Vol. 2 No. 11 (2022). 215-221 Betlar.
8. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi// American Journal Of Social And Humanitarian Research, Vol. 3 No. 11 (2022). 256-259 Pages.
9. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //Tolerantlik Shakllanayotgan Shaxs Modelining Tavsifi// International Scientific Journal «Modern Science And Research». Volume 2 / Issue 5 /2023. 761-764 Pages.
10. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li. (2023). Psixologiyada Motivatsiya Turlari, Nazariyalari Va Tahlili. Научный Импульс, 1(10), 665-670.
11. Raxmatjonov, S. (2023). Description Of The Personality Model For Forming Tolerance. Modern Science And Research, 2(5), 761-764. Dilshodbek o'g'li R. S. Talabalarda Tolerantlikni Rivojlantirish–Ijtimoiy Psixologik Muammo Sifatida //Gospodarka i Innovatsie. – 2022. – T. 30. – C. 66-70.
12. Dilshodbek o'g'li, R. S., & Boxodirjon o'g'li, V. A. (2022). Xorij Psixologlarining Ishlarida Shaxsning Tadqiq Etilishi. Innovative Developments And Research In Education, 1(12), 39-47.
13. Dilshodbek o'g'li, Raxmatjonov Shoxjahon, And Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li. "Xorij Psixologlarining Ishlarida Shaxsning Tadqiq Etilishi." Innovative Developments And Research In Education 1.12 (2022): 39-47.
14. Dilshodbek o'g'li R. S., Boxodirjon o'g'li V. A. Xorij Psixologlarining Ishlarida Shaxsning Tadqiq Etilishi //Innovative Developments And Research In Education. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 39-47.
15. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2023). Speech Issues In Psycholinguistics. Iqro Jurnalı, 2(2), 503-511.
16. Dilshodbek o'g'li, Raxmatjonov Shoxjahon. "Speech Issues In Psycholinguistics." Iqro Jurnalı 2.2 (2023): 503-511.
17. Dilshodbek o'g'li R. S. Speech Issues In Psycholinguistics //Iqro Jurnalı. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 503-511.